

**TALABALARING O'QUV JARAYONIDAGI  
MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISH ORQALI  
TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

***Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi***

*Andijon davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Tezisda turli davrda ijod qilgan allomalarning yoshlarni bilim olishiga ta'sir ko'rsatuvchi motivatsion jarayonlar nazariyasi xamda talabalarning o'quv jarayonidagi motivatsiyasini kuchaytirish orqali ta'lif samaradorligini oshirish aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, pedagogik nazariya, motivatsiya, pedagogik ta'limot, motivatsion jarayon, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

**Аннотация:** В статье отражена теория мотивационных процессов, влияющих на обучение молодежи, а также повышение эффективности обучения за счет усиления мотивации студентов в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** мотив, педагогическая теория, мотивация, педагогическая теория, мотивационный процесс, передовые педагогические технологии.

**Annotation:** The article reflects the theory of motivational processes that influence the learning of young people, and also the improvement of educational efficiency by strengthening the motivation of students in the educational process.

**Key words:** motive, pedagogical theory, motivation, pedagogical theory, motivational process, advanced pedagogical technologies.

### **KIRISH**

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lif muassasasini jahonning yetakchi ilmiyta'lif muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirishda va motivatsiyasini kuchaytirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda yoshlarni yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda doimo o'z mustaqil fikriga ega shaxs sifatida shakllantirish eng dolzarb, yurtimizning bugungi va ertangi hayotini belgilab beruvchi muhim masala hisoblanadi. Bola shaxsini shakllantirish keng qamrovli tushuncha hisoblanib, unda bevosita ta'lim va tarbiya masalalari ham o'rinni olgan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'limda olib borilayotgan ishlarning bosh mezoni asosida takomillashtirilgan, zamon talablariga javob bera oladigan dasturlar, o'quv darsliklari yaratilmoqda. Ta'lim muassasalari qayta rekonstruksiya qilinib, zamonaviy andozalar darajasiga tenglashtirilmoqda. Barchamizga ma'lumki, ta'limda olib borilayotgan ishlarning samarasi bir qancha omillarga: darslarni to'g'ri tashkil eta olish, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalaridan to'g'ri va unumli foydalana olishga bog'liq. Ta'lim tizimini takomillashtirish, uning sifat darjasini va samaradorligini oshirish bir qator omillar bilan chambarchas bog'liq. Dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishning uyg'onishiga turtki berish zamonaviy pedagoglardan psixologik bilimni talab etadi.

### **MUHOKAMA**

Motivlar-didaktik jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarda motivga turli ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha:

F. Gertsberg nazariyasiga ko'ra, Motiv - bu muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq faoliyat uchun motivatsiya Insonni harakatga undaydigan ichki sabablar deyiladi. Motivatsiya:

- 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi;

2) ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo'qqa chiqaradi.

Motiv (lot. moteo – harakatlantiraman, fransuz. motiv – undovchi sabab) shaxsni aqliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog'liq mayl yoki sababiyat. O'quvchilarni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlaridir. Binobarin, xattiharakatga va faoliyatga undovchi o'quvchining anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki motiv xatti-harakat va faoliyat motivlarning majmuasi motivatsiya deyiladi.. Pedagoglar tomonidan to'g'ri amalga oshirilgan motivlar o'quvchining faolligini, uning faoliyatini boshqarib turuvchi, tartibga soluvchi muhim omil sifatida qadimdan olimlarimizni qiziqtirib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida ham inson va uning ruhiyati, kechinmalari, maqsadli faoliyatları yuzasidan qarashlari bayon etilgan.

Abu Ali ibn Sino bola shaxsini kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qiladi, tabiat qonunlarini olib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetish uchun bola qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi.

1. Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir"

2. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Farobi (879-950) bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'limtarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanib ularga motivatsiyani to'g'ri yo'naltirish kerak deb hisoblagan:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim – tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim. Ya'ni u avvalgi usulga ilhomlantiruvchi, ikkinchi usulni esa majbur etish usuli

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

deb biladi. Abu Rayxon Beruniy (973-1048) o‘z asarlarida ta'limning ko‘rgazmaliligi, izchil, maqsadga muvofiq bo‘lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o‘rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va olivjanoblik kabi yuksak fazilatlarning mohiyatini asoslab bergen. Bu tamoyillar albatta o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantiradi, ya’ni unda o‘qishga nisbatan motiv yuzaga keladi. Uning fikriga ko‘ra, bilim olish uchun o‘quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o‘rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo‘lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Abu Temuriy shaxzoda Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) fikricha, o‘quvchi-yoshlarning bilim olishni istamasligi pedagoglarning nodonligidandir, chunki bunday mutafakkirlar kabi ozining talim-tarbiyachilar ta’lim usullarini noto‘g‘ri qo‘llash bilan bolalarning bilimga qiziqishini so‘ndiradi. Allomaning uqtirishicha, o‘quvchi talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Uning ilmlarni o‘rganish yo‘llari haqidagi ta’limoti, shaxsiy na’muna bo‘lish usullari g‘oyatda muhimdir. Zokirjon Mulla Xolmuhammad o‘g’li Furqat (1858-1909) ta’lim berishda faqatgina kitob va boshqa o‘quv qurollarigagina emas, balki qo‘srimcha texnik vositalardan foydalanishning samarasi haqida aytib o’tganlar. Haqiqatan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Ularni ta’lim oluvchilarda tarkib toptirish va rivojlantirish muammolari sharq allomalarining asarlarida ilmiy asoslab berilgan. Motivlar shaxs faolligini boshqarib turuvchi, tartibga soluvchi muhim omil sifatida g‘arb olimlari e’tiborini tortib kelgan. Bugungi kunga qadar psixologiya fanida motivning mohiyati xususida juda xilma-xil ta’riflar keltirilib o‘tiladi. Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asari jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. U barcha vositalar bilan o‘quvchilarda bilim olish ishtiyоqini uyg‘otishni taklif etadi va shu masala yuzasidan ko‘rsatmalar beradi. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan materiallarning ahamiyatini, egallagan bilimlarning mohiyatini tushuntirish lozim, ularni rag‘batlantirish, mashg‘ulotning qiziqrли bo‘lishiga harakat qilishi lozim. Motivga g‘arb olimlari tomonidan turlicha ta’riflar keltirilgan. S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to‘g‘risida shunday yozgan: “motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo‘ladigan insonni harakatga undovchi sabablar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

majmuasidir. Motiv – insonni u yoki bu harakatga undovchi kuchdir”. A.Maslouning ta'kidlashicha, motiv deganda ma'lum bir talabni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning u yoki bu faoliyatga undovchi ichki intilishi. Motivlar sifatida ta'limda samaradorlikka erishishning zarur shartidir. O‘quv faoliyati motivlari deganda o‘quv faolligi namoyon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustakovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi. G.Rozenfeld o‘qish motivatsiyasining quyidagi omillarini ajratgan.

1. Ta'lim olish uchun o‘qish, faoliyatdan qoniqmaslik yoki o‘rganilayotgan fanga qiziqmaslik.
2. Ma'lum qiziqishlarsiz o‘qish.
3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o‘qish.
4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o‘qish.
5. Majburlab yoki qo‘rqidan o‘qish.
6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o‘qish.
7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish.
8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim. E. Torndayk o‘quv jarayonida bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag‘batlantirish omillaridan ancha samarasiz va kuchsizdir, degan xulosaga keladi. Keyingi tadqiqotlarida esa, rag‘batlantirish, umuman, jalb etish barcha aloqalarni saqlash va kuchaytirish salohiyatiga, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalarni muayyandan noaniqlikka o‘zgartirish xususiyatiga egaligini ta'kidlab o‘tadi. Torndayk bolaning ijobiy o‘quv motivatsiyasini uni jazolash orqali hosil qilib bo‘lmasligini, bunday chora-tadbirlar bolada faqatgina salbiy motivatsiyani vujudga keltirishini e'tirof etgan. O‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Torndayk real inson turli rejadagi o‘z ehtiyojlari hamda talablari orqali amalga oshiradigan, uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblangan o‘quv faoliyatiga aloqador bo‘lgan umumiyo ko‘rinishdagi xulosalarga keladi va bu xulosalar, motivlashtirish nuqtayi nazaridan qaralganda, mustahkamlashning alohida bitta tizimiga sig‘maydi. J.Bruner o‘qish motivlari masalasiga Torndaykdan boshqacharoq yondashadi. U o‘zining “O‘quv

jarayoni” nomli kitobida o‘quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o‘qish jarayoni tufayli tug‘iladigan amaliy va nazariy muammolarini e’tirof etgan. J.Bruner faqat o‘qishni motivatsiyalash, ya’ni har doim ham o‘qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqidagina emas, shu bilan birga, o‘quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi.

### **XULOSA**

O‘quvchi imkoniyatlarini aniqlash va ularni yuzaga chiqarishdagi samaradorlik o‘qituvchining ustaligiga, uning vaqtida yordamga kelishi, o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish mahoratiga bog‘liq. V.A.Tokarevaning tadqiqotlarida o‘quvchilar o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Uning fikricha, o‘qish motivlari o‘zgarishi uchun yasama vaziyat va sharoitlar zarur emas, bularning barchasi kundalik hayotda va ta’lim jarayonida shakllanadi. T.D.Dubovitskayaning “O‘quv motivatsiyasining yo‘nalganligini tashxis qilish” metodikasi o‘quvchilar, talabalarning o‘quv motivatsiyasini o‘rganishga qaratilgan. Metodikada ikkita shkala mavjud. Ular ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya.

Metodika 20 ta savoldan iborat bo‘lib, qaysi fanlarni aniqlash, fanlarning nechtaligini belgilash tekshiruvchiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin. U orqali biz o‘quvchilarning olayotgan fanlariga nisbatan ichki yoki tashqi motivatsiya yuqori ekanligini aniqlashimiz mumkin. Ichki motivatsiya ustun bo‘lgan shaxslarda, asosan, ichki turkilar, ehtiyojlar, ustanovkalarning mavjudligi kuzatiladi. Bunday shaxslarda o‘tilayotgan fanlarga nisbatan qiziqish oldindan bo‘lishi yoki shu fanni o‘rganish jarayonida ham paydo bo‘lishi mumkin. Agar tashqi motivatsiya ustun bo‘lsa, talabada bu fanni o‘rganishga ko‘proq tashqi omillar sabab bo‘lganligi kuzatiladi. Biz ushbu ishimizda o‘quvchi, talabalarda yetakchi hisoblanmish o‘qish faoliyati motivlarini o‘rganishga harakat qildik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M.”Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”.Toshkent.”O’zbekiston”.2017.b-46.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

2. Mirziyoyev Sh.M.“Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz”.Toshkent. ”O’zbekiston”.2017.b-88.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.-T.: —Ma‘naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: 2011.
5. Zaynudinov Sh. N. va boshqalar. Menejment asoslari. T., Moliya, 2001.
6. Nazarova G.G’, SalixonovaN.M, Ismailova N.S. Inson resurslari menejmenti. Toshkent 2010.
7. Мировой опыт в управлении персоналом. П. В Журавлев.1998.

### **Internet manzillar.**

1. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
2. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
3. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)
4. [www.hozir.org.uz](http://www.hozir.org.uz)